

## SPORT ZAHIRALARINING TAYYORLASHNING BOSHQARUVINI TASHKILLASHTIRISH

**Mamut Matyaqubovich Raximov**

Urganch davlat universiteti dotsenti

[rakhimov.momut@bk.ru](mailto:rakhimov.momut@bk.ru)

**Alisher Amatchon o'g'li Avezmetov**

Urganch davlat universiteti magistranti

[avezmetov1141@gmail.com](mailto:avezmetov1141@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Sport yutuqlarining zamonaviy saviyasi sportchilar tayyorlashni istiqbolli zahirasini tayyorlash uchun tashkiliy-metodologik asos yaratish bilan yosh avlodni g'oyaviy tarbiyalash, jismoniy tarbiyani va oliy sport mahoratini yanada rivojlantirish, xalqaro maydonda yetakchi o'rinlarni egallashda maqsadli tayyorlovni nazarda tutadi.

**Kalit so'zlar:** Sport natijasi, tayyorgarlik, texnologiya, boshqaruv dinamikasi, boshqaruv va axborot, sifat, usul, funksional holat, mashg'ulot hajmi.

### ABSTRACT

The modern level of sports achievements implies ideological upbringing of the younger generation, further development of physical culture and higher sports skills, targeted training to take a leading position in the international arena, creating an organizational and methodological basis for the preparation of promising reserves of athletes

**Keywords:** Sports results, training, technology, management dynamics, management and information, quality, method, functional status, training volume.

### KIRISH

Erishilayotgan yuksak sport natijalarini yirik xalqaro musobaqalarda raqobatning kuchayishi mashg'ulot va musobaqa yuklamalarini muntazam o'sib borishi, o'zbek sporti geografiasining tobora kengayishi hozirgi bosqichda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash ilmiy-uslubiy asosini takomillashtirish zaruratini belgilaydi. Yuqori natijalar sportni alohida shaxsiy va umumiy millatga xos irsiy qobilyati,



jamiyaning darajasi hamda ijtimoiy tuzilishi mezoni bo'lib xizmat qilishi kerak. Tayyorgarlik texnologiyalarini har tomonlama takomillashtirish yo'llari to'g'risidagi ilmiy qarashlarning yangi tizimini yaratish va amalga oshirish xisobiga va yuqori malakali sportchilarni tayyorlash nazariyasi hamda usuliyatini yangilash lozim. Hozirgi zamonda sportda yutuqlarga erishishning sharti yuqori malakali sportchilar tayyorlashni maqbullashtirishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishdan iborat.

Sport faniga iqtisodiy mafkuraviy siyosiy o'lchamlar bo'yicha ustuvor munosabatini shakllantirish dolzarb mavzuga aylanib qoldi. Xalqaro maydondagi sport yutuqlari bu milliy boylik va birinchi navbatda davlat ulardan manfaatdor bo'lmog'i kerak. Bugungi kunda malakali sportchilarni tayyorlashning mavjud tizimini quyidagi faoliyat shakllarini shakllantirishni ko'zda tutadi.

1. Tayyorgarlikning turli bosqichlarida muvoffaqiyatga erishish uchun zarur sport natijasini bashorat qilish

2. Sportchining musobaqa faoliyatini tahlil etish va modellashtirish

3. Sportchi tayyorgarligining turli tomonlarini tahlil etish va modellashtirish

4. Rejalashtirilgan natijaga erishish uchun yo'naltirilgan sport mashg'ulotini tahlil etish va dasturlash

Bu bo'limning har biri yuzasidan olib boriladigan ish sportchi ahvolini nazorat qilish (bu nazoratning umumiy ko'rinishi sportchi tayyorlashning har xil jihatlari model tavsiyalariga qay daraja muofiqligini tekshirishdan iborat) hamda sportchi mashg'ulotlari va uning ishchanlik qobilyatini tiklashning yangi usullarini ishlab chiqish shuningdek bularning organizmga ta'sirini nazorat etish usullaridan tarkib topadi. Albatta bunday tor ma'noda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotini mushkul dinamik O'z-o'zini boshqaruvchi tizimlarini hosilasi sifatida qarash mumkin. Kibirnetika tomonidan shakllantirilgan boshqaruv qonuniyatlari asosi faqatgina sabab oqibat bog'liqligi mavjudligi bilan tasniflanuvchi mushkul dinamik tizimlarigina o'z-o'zini boshqarish mumkin degan nuqtaiy nazarga olib keladi boshqaruv jarayonlari tizimini turg'unlashuviga ruxsat beruvchi antide tashkillashtiruvchi tasnifga ega. Boshqaruv va axborot ajralmas bir butundir. O'z-o'zini boshqaruvchi tizimlarning muhim omillari teskari aloqalardir ular boshqaruvni maqsadga yo'naltirilgani va optimal hamda funksionalligini taminlaydi. Bunday holda biron bir muhim qismini tushurib qoldirish juda qiyindir chunki har bir kishida chikiy mavjuddir. Masalan sport natijalarini aniqlovchi sifat uni baholash usuli rivojlanish uslubyati rejalashtirayotgan natija me'yorini belgilash ularni vaqt bo'yicha taqsimlash tartibi va h.k

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Sportga yaroqliligini aniqlashda bolalar organizmining rivojlanish xususiyatlari e'tiborga olish lozim. L.I.Stogova (1977), M.Ivanetskiy (1966) Sprinterlarda-nisbatan tana uzunligini takidlaydi. Ingiliz professori J.Ganner (1964) olimpiada o'yinlari qatnashchilari-yengil atletikachilarning gavda tuzilishi xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. N.Bulgakovning (1986) ta'kidlashicha suzuvchilarda tozi shakli bo'yicha O.Nedrrigaylova (1964) Gimnastikachilarning uzun gavdasiga va kuchli rivojlangan yelka aylanasiga e'tibor qaratgan.

Tayyorgarlik jarayonini boshqarishning maqsadi sportchi faoliyatini takomillashtirish yuqori yutuqlarga erishishni ta'minlovchi maqsadli tayyorgarlikni rivojlantirishdir. Sport mashg'ulotini boshqarishning ob'ekti sportning intizomi uning tezkor davriy bosqichli holatining sababi bo'lib qo'llaniladigan mashg'ulot va musobaqa yuklamasi sport tayyorgarligi tizimida unga tasir majmuasining barchasidir.

Mashg'ulot jarayonini boshqarish ham sport mashg'uloti tizimi imkoniyatlarini (qonunyatlar omillar holatlar vosita va usullar hamda mashg'ulot va musobaqadan tashqari (maxsus anjom uskuna va mashg'ulotlar qayta tiklanishi vositalari iqlim omillari va x.k) omillarini majmuaviy qo'llashni ko'zda tutadi. Bir tomondan amalga oshirilgan yechimlarni asoslarga holda uning katta samaradorligini belgilaydi.

## NATIJALAR

Sport mashqi jarayonining boshqarishning asosi bo'lib, sportning turli va doimo o'zgaruvchan imkoniyatlari, uning funksional holatining o'zgarishi, hamda sportchidan murabbiyga keladigan quyidagi to'rt turdagi qaytma aloqa to'g'risida axborot xizmat qiladi;

1. Sportchidan murabbiyga keluvchi ma'lumotlar (salomatlik, ishga munosabati, kayfiyat va boshqalar);
2. Sportchining o'zini tutishi to'g'risida ma'lumotlar (mashg'ulot hajmi, uni bajarilishi, aniqlangan hatolar va x.k);
3. Mashqlarni tezroq samarasi to'g'risida axborotlar (mashq yuklamasi natijasida funksional o'zgarishi tasnifi);
4. Mashg'ulotning kumulyativ va kelgusi samarasi to'g'risidagi ma'lumotlar (sportchining tayyorgarlik darajasini o'zgarishi).

Mashg'ulot jarayonida sportchining turli xolatlarini boshqarish lozimligi munosabati bilan boshqaruvning bir necha turlarini sanab o'tish mumkin:



-bosqichli, yirik strukturali mashg'ulot jarayonlari majmuasida tayyorgarlikni takomillashtirishga yo'naltirilgan (ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlarida, makrosikllarda, davrlarda);

-kundalik mikro va mezo davrdagi mashqlar, ba'zi musobaqalar davrida sportchining o'zini tutishini takomillashtirishni ta'minlaydi;

-tezkor mehnat va xordiq tartibi, alohida mashg'ulot va ularning majmuasini bajarish chog'ida harakat tasniflari, mashg'ulotlar dasturi, alohida musobaqa va kurashlarda sportchi organizmining ta'sirchanligini takomillashtirishga yo'naltirilgan.

## MUHOKAMA

Sport yutuqlarining zamonaviy saviyasi sportchilar tayyorlashning ko'p yillik tizimini tashkil etishni, samarali tashkiliy shakllarni izlashni, yuqori malakali sportchilar qatorini to'ldirib borish uchun iqtidorli yigit va qizlarni sport bilan shug'ullanishga keng jalb qilishni talab etadi. Buning uchun xukumatimiz bolalar sportini doimiy rivojlantirish yuqori sport mahorati maktablarini tashkil etishga yo'naltirilgan qarorlari mavjud, mamlakatimizda bularga tashkiliy, metodik va moddiy asos solingan.

Hozirgi vaqtda sport zahiralari quyidagicha klasifikatsiyasi qabul qilinigan. Amaldagi zahira mamlakatning terma jamoalariga nomzod bo'lgan, yosh jixatdan istiqbolli bo'lgan yuqori malakali sportchilardir. Ular xalqaro toifadagi sport ustasi darajasiga javob berishlari, respublika va xalqaro musobaqalarida, jahon chempionatlarida muvaffaqiyatli qatnashishi lozim.

Yaqin zahirada olimpiadagacha bo'lgan davrda mamlakatning terma jamoalariga nomzodlar qatorini to'ldirib boradigan yosh iqtidorli sportchilardir. Yaqin zahirani aniqlash chog'ida sportchining kelgusi sport natijalari, yoshlararo xalqaro musobaqalarda muvoffaqiyatli qatnashish ko'rsatkichlariga e'tibor beriladi. Yaqin zahirani baholashda sportchining yoshi, mashg'ulot va bellashuvlar staji, model ko'rsatkichlariga e'tibor qaratiladi.

Istiqbolli zahira bolalar-o'smirlar sport maktablarida BO'SM ixtisoslashgan olimpiya zahiralari bolalar-o'smirlar sport maktablarida IOZBO'SM oliy sport maxorati maktablarida OSMI shug'ullanayotgan yosh sportchilardir. Yosh sportchilar tayyorlashning boshqarish texnologiyasi bir necha bosqichga bo'linadi: qaror qabul qilish, ijroni tashkil etish, axborotlarni yig'ish va tahlil qilish, yakuniy ma'lumotnoma tayyorlash. Agar ushbu umumiy qoidalarni yosh sportchilarni tayyorlash tizimiga qo'llaydigan bo'lsak, quyidagi tizimiga qo'llaydigan bo'lsak, quyidagi tizimiga ega bo'lamiz.



Boshqaruv tizimining tashkiliy elementlari sport maktablarining sifatli va samaradorligini yaxshilashga yo'naltirilganligini aks etiradi. Ushbu jarayonda yetakchi o'rin murabbiy hamda boshqa mutaxassislariga (shifokorlar, ilmiy xodimlar va boshqalar) ajratiladi.

Alohida qayd etib o'tish lozimki, sport zahiralari tayyorlash boshqaruvining samaradorligini oshirish uchun, barcha sport yo'nalishlari uchun yagona bo'lgan to'g'ri uslubiy tizim qoidalariga rioya qilish muhim omil hisoblanadi. U yoki bu tizimning samaradorligini aniqlash qiyosiy tahlil yordamida amalga oshiriladi. Biroq, yosh sportchilarning ma'lum vaqtgacha o'sib borishi natijasida ko'p yillik tayyorlov jarayonining turli bosqichlari maqsadga muvofiq emas.

## XULOSA

Sport mashg'ulotlarini boshqarish jarayoni murabbiy tomonidan ma'lum ketma-ketlikdagi amallarni bajarilishini ko'zda tutadi (shu bilan bir vaqtda maqsad e'tiborga olinadi). Birinchi amal sportchining tayyorgarligi to'g'risida birlamchi ma'lumotlarni olish; kuchli va mos tomonlarni aniqlash; umumiy va xususiy vazifalarni aniqlash. Ikkinchi amal maqsaddagi ko'rsatkichga erishishni taminlaydigan modul tasniflari bilan tanishish.

### Yosh sportchilar tayyorlashni boshqarish

Qarorlarni qabul qilish	Ijroni tashkil etish	Ma'lumot yig'ish va qayta ishlash	Yakun yasash
-------------------------	----------------------	-----------------------------------	--------------

Maqsad va vazifalarni belgilash	Sportga layoqatligini aniqlash asosida guruhlarni shakllantirish	Maqsadga etishni Aniqlovchi omillar	Mashg'ulotni rejalashtirish	O'quv-mashq jarayonini o'tkazish	Kuzatuvchilar	Nazorat tizimi	Hisob	Belgilangan maqsad va vazifalarga erishish	Kelajakdagi qarorlarni qabul qilish uchun tavsiyalar
---------------------------------	------------------------------------------------------------------	-------------------------------------	-----------------------------	----------------------------------	---------------	----------------	-------	--------------------------------------------	------------------------------------------------------

### F.Kerimov va M.Umarov jadvali asosida

Yosh sportchi erishishi kerak bo'lgan model ko'rsatkichlariga orientatsiya qilish uchun, bir tomondan yaxshi rivojlanishni va ikkinchi tomondan tayyorgarlikning kerakli saviyasidan o'zib ketmaslikni





taminlash lozimligidan kelib chiqadi. O‘smirlar sportida, sport malakasini yanada takomillashtirishda bazaviy sport mashg‘ulotlarining samsaradorligi birinchi o‘ringa chiqadi, ular bolalar va o‘smirlarga ishonchli asos taminilashi lozim. Ma‘lumki, samaradorlik nisbiy kattalik, uni biror bir narsa bilan taqqoslabgina hisoblash mumkin. Masalan, yosh sportchi rivojlanishining qandaydir sifati aniqlanganda, faqatgina shu ma‘lumotlarni model ko‘rsatkichlariga qiyoslab, sport mashg‘uloti qanday saviyada olib borilayotganligini aniqlash mumkin.

## REFERENCES

1. Abdullaev.A, Xonkeldiev.SH “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” T- 2005
2. Kerimov.F., Umarov.M. Sportda prognozlashtirish va modellashtirish. Darslik. Tosh.2005
3. Kerimov.F Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. Darslik. Tosh.2005
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tog‘risida” gi farmonini Toshkent shahri, 2018-yil 5-mart.
5. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati, Toshkent “O‘z DJTI” nashriyotimatbaa bo‘limi 2001-yil.
6. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, Toshkent “Zar qalam” nashriyoti 2004- yil.
7. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari “O‘z DJTI” nashriyoti-matbaa bo‘limi Toshkent 2005-yil
8. Xalmuhamedov R.D. SHin V.N. Abdurasulova G.B.Tajibaev S.S. YOsh yakkakurashchilar ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonining turli bosqichlarida saralashning me‘yorlari.
9. www.sport-athlet.com
10. www.gymnastic.ru/atletiss

